



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KICHIK NASRIY ASARLARNI O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Samarqand davlat pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim

nazariyasi kafedrası assistenti

Saydulloyeva Shoxsanam

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

Samarqand davlat pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Rahmonqulova Marjona Rafiqovna

rahmonqulovamarjona67@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda kichik nasriy asarlarni o‘rgatishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Kichik nasriy asarlar (hikoya, ertak, masal, rivoyat) orqali o‘quvchilarda ongli o‘qish, matnni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va nutq madaniyatini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda bosqichma-bosqich o‘qitish jarayoni asosida darsni tashkil etish usullari tavsiflanadi. Shuningdek, kichik nasriy asarlarni o‘rgatishda ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning uyg‘unligi ilmiy-metodik jihatdan asoslab beriladi

Kalit so‘z: kichik nasriy asar, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qitish texnologiyasi, matn tahlili, interfaol metodlar, ifodali o‘qish, tarbiyaviy maqsad.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichli o‘quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki dunyoqarashlari va axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonida muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda badiiy adabiyot, xususan, prozaik asarlarni o‘rganish,



bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nutq madaniyatini boyitish va ma'naviy kamolotga erishishlariga yordam beradi. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kichik nasriy asarlar – hikoya, ertak, rivoyat, masal kabi janrlar alohida o'rin tutadi. Ushbu asarlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos, sodda, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi. Shu bois kichik nasriy asarlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish orqali ularning o'zaro muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va birgalikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Masalan, bir guruh asarning bosh qismiga oid savollarga javob bersa, boshqasi qahramonlarning muammolarini aniqlaydi.

Nasriy asarlarni o'rgatishda ko'rgazmalilikning ahamiyati shundan iboratki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ko'rgazmali vositalarga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'ladi. Bu nafaqat tasviriy materiallar (rasmlar, videolar), balki audio vositalarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, asar matni qahramonlarining ovozli ijrosi o'quvchilarda asarga qiziqish uyg'otadi.

Kichik nasriy asarni o'rgatish texnologiyasi to'rt asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Tayyorgarlik (Evristik suhbat):

Asarni o'qishda oldin o'quvchilarda qiziqish uyg'otiladi. Bunda muallif hayoti haqida qisqa faktlar, asar mavzusiga doir topishmoqlar yoki krossvordlardan foydalaniladi.

2. Birlamchi tanishtirish:



Matn birinchi marta o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Bu bolada asar haqida to'liq tasavvur va hissiy ta'sir uyg'otish uchun muhimdir.

3. Tahlil va qayta o'qish:

Matn bo'laklarga bo'linadi, qiyin so'zlar ustida lug'at ishi olib boriladi. Savol-javoblar orqali asar mazmuni chuqurlashtiriladi.

4. Sintez(Xulosa)

Asarning bosh g'oyasi aniqlanadi. O'quvchilar asar qahramonlariga baho beradilar. Masallar esa qisqa va lo'nda bo'lsa-da, o'zida chuqur falsafiy ma'noni jamlaydi. Masallarni o'qitishda asosan majoziy obrazlar tahliliga e'tibor qaratiladi. Mana shuni Ezopning "Eman va O'tinchi "masalida ko'rib chiqsak.

EMAN VA O'TINCHI

Ezop masali

O'tinchi Emanni qulatib, uni sarjinlabdi. Tanasini bo'laklash uchun Emanning o'z shoxlaridan pona yasabdi.

Eman xo'rsinib, shunday debdi:

– Men ildizimga tushayotgan boltaning zarbiga chidayman, ammo o'z shoxlarimdan qilingan pona bilan bo'laklarga bo'linishimga chidolmayman.

Qissadan hissa: Eng chidash qiyin bo'lgan narsa-o'zimizdan kelib chiqqan kulfatdir.

Mazkur masalda Eman daraxti va O'tinchi obrazi orqali inson hayotidagi eng og'riqli holatlardan biri – yaqinlardan keladigan zarar masalasi yoritiladi. O'tinchi Emanni qulatadi va uni bo'laklash uchun emanning o'z shoxidan pona yasaydi. Eman esa tashqi zarbaga chiday olishini, ammo o'zidan chiqqan vosita bilan bo'linishga chiday olmasligini aytadi. Masalning asosiy g'oyasi shundan iboratki,



inson tashqi dushmanlarga qarshi kurasha oladi, lekin o‘ziga yaqin insonlardan kelgan xiyonat va zarar qalbga og‘ir botadi. Bu masalda Eman - sabrli va kuchli inson, bolta - tashqi dushman pona- ichki xiyonat ramzidir. Masal o‘quvchini sadoqatli bo‘lishga, boshqalarga zarar yetkazmaslikka, ayniqsa, yaqinlariga nisbatan mehrlil va halol bo‘lishga undaydi.

TULKI BILAN MUSHUK

Ezop masali

Tulki Mushukka o‘zining dushmandan qochish uchun qo‘llaydigan hiylalari haqida maqtanayotgan edi.

– Menda dushmandan qochishning yuz xil usuli to‘la hiyla qopim bor, – dedi u.

– Menda faqat bittagina, –dedi Mushuk. Lekin men shuning o‘zi bilan ham hamma narsaning uddasidan chiqaman.

Shu payt ular o‘zlari tomon kelayotgan bir to‘da tozining ovozi eshitib qolishibdi. Mushuk darrov daraxtga chiqib butoqlar orasiga yashirinib olibdi.

–Bu men bilgan usul. Sen nima qilmoqchisan?–debdi Mushuk.

Tulki avval birinchi yo‘lni o‘ylabdi, keyin boshqasini. Shunday qilib to u o‘ylab bo‘lguncha tozilar yetib kelib uni ushlab olishibdi-yu, ovchilar uni o‘ldirishibdi.

Buni kuzatib turgan Mushuk shunday debdi:

–Bitta xavfsiz, ammo sinalgan yo‘l yuzta ishonib bo‘lmaydigan usuldan afzalroqdir.

Ushbu masalda Tulki o‘zining yuz xil hiylasi borligini maqtanadi. Mushuk esa faqat bitta usul bilishini, lekin shu usul bilan har doim qutulishini aytadi. Xavf



tugʻilganda Mushuk tezda daraxtga chiqib qutuladi, Tulki esa koʻp oʻylab, biror aniq qarorga kelolmay qoladi. Masalning gʻoyasi – koʻp gapirishib va maqtanish emas, balki amaliy harakat muhimligidir. Bu masalda tulki–maqtanchoq, ikkilanadigan inson, mushuk – kamtar, amaliy fikrlaydigan inson, tozilar– hayotdagi sinov va qiyinchiliklar ramzi. Masal oʻquvchilarga kamtarlik, tezkor fikrlash va puxta bilimning ahamiyatini anglatadi.

Masallarning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, har ikkala masal ham, axloqiy tarbiya beradi, sadoqat, kamtarlik, halollik kabi fazilatlarni targʻib qiladi, maqtanchoqlik va xiyonat kabi illatlarni qoralaydi, oʻquvchilarda mustaqil xulosa chiqarish koʻnikmasini shakllantiradi.

Masallar boshlangʻinch sinf oʻquvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. “Eman va Oʻtinchi” masali sadoqat va ichki birlikni targʻib etsa, “Tulki bilan Mushuk” masali kamtarlik va amaliy fikrlashning ustunligini koʻrsatadi. Ularni toʻgʻri metod asosida oʻqitish oʻquvchilarning nafaqat nutqini, balki maʼnaviy dunyosini ham boyitadi.

TIL VA YURAK

(Rivoyat)

Luqmoni hakimni bir kishi sotib olib, dargohida xizmat qildirardi va undagi ilm-u hikmatni gohi-gohida sinab koʻrardi. Bir kuni imtihon tarzida buyurdi:

–Ey Luqmon, menga bir qoʻyni soʻyib, eng yaxshi aʼzosini olib kelgin.

–Bosh ustiga, –dedi Luqmon va qoʻyni soʻyib, tili bilan yuragini xoʻjasiga eltadi.

Ancha muddat oʻtgandan keyin xoʻja uni yana chaqirib, dedi:



–Ey Luqmon, bir qo‘yni so‘ygin-da, menga uning eng yomon a’zosini olib kelgin.

Luqmon qo‘yni so‘yib, yana tili bilan yuragini ko‘tarib keldi.

Xo‘ja dedi:

–Nega qo‘yning eng yaxshi a’zosini so‘rasam ham, eng yomonini so‘rasam ham til va yurakni ko‘tarib kelding?

Luqmon dedi:

–Ey Xo‘ja, agar pok bo‘lsa, hech narsa til va yurakdan yaxshi emas. Agar nopok bo‘lsa, hech narsa ulardan yomonroq emas. (Sharqona tarbiya kitobi)

“Til va yurak” rivoyati Sharq didaktik adabiyotiga xos bo‘lgan pand-nasihat mazmunidagi hikoyadir. Bu rivoyatda insonning axloqiy fazilatlari, ichki dunyosi va nutq madaniyatining ahamiyati ramziy obrazlar orqali tushuntiriladi. Rivoyatning markazida Luqmon hakim obrazi turadi. U donolik, hikmat va hayotiy tajriba timsoli sifatida tasvirlanadi. Rivoyat mazmuni insonning ichki dunyosi, ya’ni yurak (qalb) va tashqi ifodasi – til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi.

Rivoyatda Xo‘ja Luqmonni sinash maqsadida qo‘y so‘yib, uning eng yaxshi a’zosini olib kelishni buyuradi. Luqmon qo‘yning tili va yuragini olib keladi. Keyin xo‘ja yana qo‘yning eng yomon a’zosini olib kelishni so‘raganda ham Luqmon yana til va yurakni olib keladi. Bu holat rivoyatda ramziy ma’noga ega. Til va yurak inson hayotida eng muhim a’zolar sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy talqinga ko‘ra, yurak bu yerda insonning ichki dunyosi, niyati, axloqi va ruhiy holatini bildiradi. Inson qalbi pok bo‘lsa, unda yaxshi niyat, halollik, mehrshafqat kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Til esa ana shu ichki dunyoning tashqi ifodasi bo‘lib, inson fikrini va niyatini so‘z orqali namoyon qiladi. Demak, yurak va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.



Rivoyatda Luqmonning javobi falsafiy va axloqiy xulosa sifatida beriladi: agar insonning qalbi pok bo'lsa, til va yurakdan yaxshiroq narsa yo'q, chunki ular orqali yaxshilik, dono fikr va yaxshi so'zlar tarqaladi. Ammo agar insonning qalbi nopok bo'lsa, unda til va yurak eng yomon vositaga aylanadi. Chunki yomon niyat yurakda paydo bo'ladi, til esa bu niyatni so'z orqali boshqalarga yetkazadi.

Shunday qilib, rivoyatning ilmiy va tarbiyaviy mazmuni shundan iboratki, insonning axloqiy fazilatlari avvalo uning ichki dunyosida shakllanadi. Nutq madaniyati esa shu ichki dunyoning ifodasi hisoblanadi. Inson qalbini pok tutsa va tilini yaxshi so'zlar uchun ishlatsa, jamiyatda ijobiy munosabatlar shakllanadi. Aks holda, yomon niyat va yomon so'zlar jamiyatda nizolar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Demak, rivoyat insonni qalb pokligi, axloqiy tarbiya va nutq madaniyatiga rioya qilishga undaydi. Til va yurak insonning eng muhim ma'naviy omillari sifatida talqin qilinadi va ular insonning shaxsiy hamda ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

IKKI DO'ST VA AYIQ

Ezop masali

Ikki do'st o'rmonda aylanib yurganlarida to'satdan ayiqqa duch kelib qolishibdi. Ulardan birinchisi shoshib daraxtga chiqib olibdi va ayiqning changalidan qutulib qolibdi. Ikkinchisi esa, hech narsa qo'lidan kelmasligini bilib, o'zini o'lganga solib yotib olibdi.

Ayiq yerda yotgan kishining oldiga kelib, qulog'ini hidlabdi. Hatto uni turtib ham ko'ribdi. Kishini o'lgan deb o'ylab, unga tegmasdan ketib qolibdi.

Ayiq ketgach, haligi kishining do'sti daraxtdan tushib kelib:

– Do'stim, ayiq qulog'ingga nima deb shivirladi? – deb so'rabdi.



– U menga: qiyinchilik paytida tashlab ketadigan do‘st bilan sayohatga chiqishni yaxshilab o‘ylab ko‘rmabsan-da, dedi, xolos, – deb javob beribdi do‘sti.

Qissadan hissa: Do‘stlik qiyinchilikda sinaladi.

Berilgan rivoyatning asosiy ma‘nosi haqiqiy do‘st qiyinchilik va xavfli vaziyatlarda bilinadi degan g‘oyani ifodalashdir. Rivoyatda ikki do‘stning xatti-harakati orqali insoniy munosabatlarning muhim jihati – sadoqat va mas‘uliyat masalasi ko‘rsatilgan.

Birinchi do‘st xavf tug‘ilganda faqat o‘z jonini o‘ylab, daraxtga chiqib ketadi va sherigini yolg‘iz qoldiradi. Bu holat do‘stlik tamoyillariga zid xatti-harakat sifatida talqin qilinadi. Chunki ijtimoiy va axloqiy qarashlarga ko‘ra, do‘stlik o‘zaro yordam, sadoqat va birdamlikka asoslanadi. Qiyinchilik paytida sherigini tashlab ketish esa do‘stlikning buzilishidir.

Ikkinchi do‘st esa vaziyatni to‘g‘ri baholab, o‘zini o‘lganga solib jonini saqlab qoladi. Bu uning aql bilan ish tutganini ko‘rsatadi. Rivoyatda ayiqning “shivirlashi” aslida badiiy usul bo‘lib, muallif orqali aytilgan axloqiy xulosani ifodalaydi. Ya‘ni qahramon o‘z do‘stining haqiqiy fe‘l-atvorini tushunib yetadi.

Rivoyatning mazmuni shundan iboratki, insonning haqiqiy do‘sti faqat yaxshi kunlarda emas, balki qiyin vaziyatlarda ham yonida bo‘lishi kerak. Agar kimdir xavf paytida sherigini tashlab ketadigan bo‘lsa, u chin do‘st hisoblanmaydi.

Bu rivoyat insonlarga do‘st tanlashda ehtiyot bo‘lish, sadoqatli va ishonchli insonlarni qadrlash kerakligini o‘rgatadi. Asarning asosiy g‘oyasi shuki:

Haqiqiy do‘st qiyinchilik paytida bilinadi va do‘stlik sadoqat bilan mustahkamlanadi.

“XO‘ROZ BILAN BO‘RI”



(Ertak)

Bir bo‘ri daraxt ustida o‘tirgan Xo‘rozni ko‘ribdi va uni tutib yemoqchi bo‘lib, daraxt ostiga keldi. Hiyla bilan bechora Xo‘rozni daraxtdan tushirmoqchi bo‘libdi: «Ey, Xo‘roz o‘rtoq! Men senga bir yaxshi xabar keltirdim. Hayvonlar bilan qushlar o‘rtasida sulh bo‘ldi. Bir-biriga zulm qilmaslikka, biri ikkinchisini tutib yemaslikka qaror qilindi. Kel, birodar, pastga tush! Bir-birimizga do‘st bo‘lib, birga o‘ynaylik», – dedi. Xo‘roz Bo‘rining so‘ziga aldanadigan darajada nodon va ahmoq bo‘lmaganidan Bo‘riga qarab shunday dedi:

– Do‘stim, so‘zing rost. Lekin biroz sabr qil. Sendan boshqa ikki it ham sulh xabarni eshitib, bu yerga kelishmoqda. Hammamiz birga o‘ynaymiz.

Bo‘ri Xo‘rozdan bu so‘zni eshitgan zamon dumini orqasiga qo‘yib, qocha boshladi.

Xo‘roz: «Hoy, birodar, nima uchun qochayapsan, o‘rtamizda sulh bor-ku?» – desa. Bo‘ri:

– Oh, do‘stim! Bu zolim itlar sulhni buzganga o‘xshaydi, – deb qochib ketibdi. Xo‘roz orqasidan: «quq- qa...ru...qu-u...», – deb qichqirib qolibdi.

“Xo‘roz bilan Bo‘ri” ertagi hayvonlar orqali inson xulqini tasvirlaydi. Asosiy qahramonlar – Bo‘ri va Xo‘roz orqali ochko‘zlik, aql, ehtiyotkorlik va do‘stlik mavzulari ochib berilgan.

Bo‘ri ochko‘z va shafqatsiz xarakteri bilan Xo‘rozga zarar yetkazmoqchi bo‘ladi, so‘z bilan uni aldashga harakat qiladi. Xo‘roz esa aqlli va ehtiyotkor bo‘lib, Bo‘rining so‘zlariga aldanmay, vaziyatni tez tushunadi va xavfdan qochadi. Shu voqea orqali ertak aldovga ishonmaslik, aql bilan harakat qilish va haqiqiy do‘stlikni qadrlash sabog‘ini beradi.



Ertakning asosiy manosi shundan iborat: aqlli va ehtiyotkor bo‘lish hayotiy xavflardan saqlaydi, do‘stlik va sulh esa so‘zlarda emas, amalda ishonch bilan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, kichik nasriy asarlarni o‘rgatish texnologiyasi faqat matnni o‘qitish bilan cheklanmaydi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri tanlangan metod va vositalar asosida tashkil etilgan dars o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi, estetik didni rivojlantiradi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Shu bois boshlang‘ich ta‘lim jarayonida kichik nasriy asarlarni o‘qitish tizimli, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012.
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. O‘qish metodikasi. – Toshkent: Nosir,
3. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan”, 2005.
4. www.ziyouz.uz